



## **BOSHLANG'ICH TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ILG'OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH**

**Bozorova Mavjuda Urolovna**

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti,  
Pedagogika fakultiteti 5-bosqich talabasi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17332439>

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktablarda boshlang'ich ta'limning samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuv, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish usullari haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, maqola ko'p yillik tajriba natijasida ustozlar tomonidan orttirilgan amaliyot orqali ta'limni eng ilg'or-effektiv yo'llarini ko'rsatib o'tiladi va tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Boshlang'ich ta'lim, mehnat, tarbiya, texnologiya, islohot, pedagogik texnologiya, ilg'or-effektiv yo'llar, pedagogik tahlil va tajriba.

**Abstract :** This article discusses innovative approaches to improving the effectiveness of primary education in schools, ways to effectively use modern pedagogical technologies. The article also shows and analyzes the most effective ways of teaching through many years of experience gained by teachers.

**Keywords:** Primary education, labor, education, technology, reform, pedagogical technology, advanced and effective ways, pedagogical analysis and experience .

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются инновационные подходы к повышению эффективности начального образования в школах, пути эффективного использования современных педагогических технологий. В статье также показаны и проанализированы наиболее эффективные способы обучения на основе многолетнего опыта, накопленного учителями.

**Ключевые слова:** начальное образование, труд, воспитание, технология, реформа, педагогическая технология, передовые и эффективные способы, педагогический анализ и опыт

Axborot texnologiyalari yetakchi o'ringa chiqib olgan hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda maktablar tizimini, ta'lim mazmunini yangilash zaruratga aylandi. Eskicha o'qitish usullari va metodlari ma'nan eskirib, ta'limning ilg'or pedagogik texnologiyalarga asoslangan metodlari va shakllariga ehtiyoj kuchaydi. Ta'limtarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda esa ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb – hunarga yo'naltirishda davlat xizmatini hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim mazmunini yaxshilashda pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yul oshish, uning muhim tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish ayni muddaodir.

O'quvchilarga bilim berishda samarali qo'llansa bo'ladigan interfaol uslublar, didaktik o'yinlar, o'quvchilarga mos metodlar, ta'limiy mashqlardan kiritilgan. Bu o'yin mashqlaridan darslarda ta'limiy musobaqa tarzida ham foydalansa bo'ladi va ular 25-35 o'quvchiga mo'ljallangan. Bevosita, o'zim ish faoliyatimda yaratgan innovatsion g'oyalarimdan ham namunalar keltirganman. O'quvchilarga darslarda singdirilgan kompetensiyaviy yondashuvlar, ular hayotida, albatta, asqotadi degan umiddaman. Xullas, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga



o'rgatish, bilim sifatini oshirishda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim sifat samaradorligini oshishida bu maqola yaxshi xizmat qila oladi, deb o'ylayman. Zero, bugungi kunda o'qituvchining qilayotgan mehnati, albatta, ertaga o'z samarasini beradi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglik muhitini ta'minlash uchun muhim poydevor bo'ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi. Aynan shu vazifa va topshiriqlarni amalga oshirish uchun "2017 — 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" tashkil etildi va uning ta'limga bag'ishlangan ustuvor yo'nalishlari sifatida ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan g'oyalarni o'z tarkibiga oladi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" yosh avlodni tarbiyalashning asosiy istiqbol va yo'nalishlarini belgilab berdi. " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ta'limni tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishlari ko'rsatib berildi. Unda "Uzluksiz ta'lim ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy boy shaxs shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar ildam tayyorlanishi uchun zarur shart – sharoitlar yaratadi", deb ko'rsatilgan. Shuningdek, dasturda: "Ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalarini, zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarini yaratish va o'quv – tarbiya jarayonini didaktik jihatdan ta'minlash" umumiy o'rta ta'limning asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan edi. Darhaqiqat, innovatsion yondashuvlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonining unumdorligini oshiradi. O'quvchilarga kompetensiyalarni har bir dars ko'lamida puxta singdirib borishimiz kerak. Bunda biz o'qitishda yangi ped texnologiyalardan, innovatsion g'oyalardan, interfaol uslublar va kreativ yondashuvlardan o'rinli ravishda o'z vaqtida foydalana bilishimiz lozim. O'quvchilar biz yaratgan innovatsiyalar orqali yetarli bilim egallaydi, deb o'ylayman. Men o'z ish faoliyatim davomida ko'pgina innovatsion g'oyalardan, turli xil didaktik o'yin mashqlardan keng ko'lamda foydalanaman. Oddiygina yaratgan o'yin mashqimiz ham o'quvchi uchun juda qiziqarli va esda qolarli bo'ladi. Men o'qish darslarida ayniqsa, "Yosh aktyorlar", "Quvnoq quyonchalar", "Bu meniki", "Charxpalak", "Zanjir", "Davom ettir", "Maqollar zanjiri", "Yosh suxandon", "Sinkveyn" metodi, "Venn diagrammasi", "Zig-zag" texnologiyasi, "Topib o'qi" kabi usul va ta'limiy mashqlardan ko'p foydalanaman. Bu o'yinlar o'quvchilarga juda yoqadi. Hattoki o'quvchilar o'zlari ham yangi o'yin mashqlari yaratib, kartochkalar yozib kelishadi. Bundan juda quvonaman. Bu albatta, ko'pincha kreativ fikrlashdan kelib chiqadi. Matematika darslarini o'quvchilar juda yaxshi ko'radilar. Bu darsga men juda puxta tayyorgarlik ko'raman. Chunki o'quvchilar bilimi juda yaxshi, shuning uchun ular mendan yangi narsalar so'raydilar, mantiqiy mashqlar berishni iltimos qiladilar. Bunda men ko'pincha "Kim birinchi", "Mohir hisobchi", "Atamani top", "Uchqur kema", "Ziyrak quyonlar", "Orzular kemasi", "Tez javob", "Mo'jizalar maydoni", "Baliqchalar tutish", "O'zim tekshiraman", "BBB", "Ortiqchasini top" kabi metod va o'yin usullaridan juda ko'p foydalanaman. Bularni davom ettirsak juda ko'p, bu o'qituvchining dars o'tish mahoratiga bog'liq. Ona tili darslarida esa "Qoidani top", "Karvon", "Quruvchilar", "Kim zukko, kim tezkor", "Noto'g'ri jumla", "Qarsak chaldi", "Hikoya", "Boshqotirma",



“Tushunchalar tahlili”, “So‘z ichida so‘z”, “Quvnoq alifbo”, “Rasmlı dıktant”, “Boshqotırma”, “Ha yoki yo‘q”, “So‘z yozısh”, “Baliq skleti” kabi didaktik o‘yin va ta‘limiy mashqlarlardan keng foydalanaman. “Quruvchilar” o‘yiniga to‘xtalib o‘taman. Bunda o‘quvchilar guruhlarga ajratiladi va har bir guruhga “Zamonaviy uylar” qurish uchun “g‘ishtchalar” taqdim etiladi. “Tom” chalarga so‘z turkumlari nomlari yoziladi. O‘quvchilar so‘z turkumlariga doir so‘zlarni aralash tartıbda berilgan g‘ishtchalardan topib, tegishli uychalarni qurishi kerak bo‘ladi. Albatta, bu o‘yinda bilim, tezkorlik va hamkorlik juda muhimdir. Muhimi o‘quvchilarning o‘sha fanga, maktabga va o‘qishga bo‘lgan ishtiyoqi yanada oshadi.

“Innovatsiya” – bu yangilik demakdir. Biz boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga,

albatta, biror yangiliklar yaratib bilim berib borsak, natijasi yaxshi bo‘ladi. Pedagogik texnologiyaga asoslangan ta‘lim jarayonida o‘qıtuvchi va o‘quvchi faoliyati doirasida aniq belgilanadi. Bu ta‘limni tashkil etishning aniq texnologiyasini ko‘rsatadi. Shuning uchun ham zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta‘lim jarayoniga joriy etish, ta‘lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning vazifasiga aylandi. Men ko‘pincha darslarimda “Blits-o‘yin” texnologiyasidan keng foydalanaman. Ushbu texnologiya o‘quvchilarni harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil etishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan narsaning ko‘p xilma-xil ma‘lumotlardan kerakligini tanlab olishni o‘rgatishga qaratilgan. Ushbu texnologiya davomida o‘quvchilar o‘zlarining mustaqil fikrlarini boshqalarga o‘tkaza oladilar, chunki bu texnologiya shunga to‘liq sharoit yaratib beradi. Bu texnologiya yettita bosqıchda amalga oshiriladi. O‘quvchilar buni juda qiziqib bajaradilar va ularning yodida mavzu uzoq saqlanib qolishiga sabab bo‘ladi. Darslarda axborot texnologiyalarining ishlatilishi, innovatsion g‘oyalardan va yangi pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida foydalanish o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini, ularning qiziquvchanligini, mustaqil ishlarning samaradorligini oshiradi. Bularidan samarali foydalanish o‘qıtuvchidan juda yuksak pedagogik mahorat talab qiladi. Biz o‘qıtuvchilar har doim jajji o‘quvchilarimiz uchun izlanishda, yangiliklar yaratishda bo‘lishimiz lozim va bizning eng dolzarb vazifalarimizdan biridir.

Xulosa qilib aytganda, didaktik o‘yinlar, interfaol uslublar, ta‘limiy mashqlar, yangi-yangi metodlar barchasi o‘quvchini yangi mavzuni puxta o‘zlashtirishga va ta‘lim sifatini oshishiga xizmat qiladi. Biz pedagog muallimlarning ham maqsadimiz shudir. O‘quvchilar qanchalik kreativ fikrlab, mustaqil bajara olsalar biz maqsadga erishgan bo‘lamiz. O‘quv jarayonida motivatsiyadan foydalanish va rag‘batlar berish ham, albatta, innovatsion yondashuvda juda qo‘l keladi. Har bir o‘qıtuvchi darslarga innovatsion yondashib, yangi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib darslar o‘tsa bu o‘z natijasini beradi. Mustaqil O‘zbekistonimiz kelajagi bilimli, mustaqil fikrlaydigan tadbirkor va tashabbuskor kadrlarga bog‘liq. Ular esa maktablarda tarbiyalanadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali, 2018-yil, 9-son, 8-bet.
2. “Boshlang‘ich ta‘limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar”, T.G‘afforova, Toshkent-2016.
3. “Boshlang‘ich ta‘lim” jurnali, 2017-yil, 7-soni, 20-bet.
4. “Mahoratli pedagog” jurnali, 2019-yil, 5-son, 26-bet.



5. Journal of Primary Education, 2018, No. 9, page 8.
6. "Modern pedagogical technologies in primary education", T. Gafforova Tashkent-2016.
7. Journal of Primary Education, 2017, issue 7, page 20.
8. "Skilled pedagogue" magazine, 2019, issue 5, page 26.